

PSIXOLOGIK XIZMATNI TASHKIL ETISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

Raimova Dilafuz Abdujabborovna

Farg'ona viloyati O'zbekiston tumani 59-maktab psixologi

Annotatsiya. Tezida ta'lim tizimidagi psixologik xizmatning fenomen sifatidagi mohiyati tilga olingan. Shuningdek, O'zbekiston respublikasi umumiy o'rta ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan maktab amaliyotchi psixologlarida o'tkazilgan aniqlovchi tadqiqot natijalari o'rganilib, tahlil natijalariga suyangan holda ta'lim tizimidagi psixologik xizmat faoliyatidagi muammolar tasniflangan. Mazkur muammolarning spetsifikasiga asoslangan holda psixologik xizmatning konseptual, ilmiy, tashkiliy, moddiy va metodik jihatlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar berilgan.

***Kalit so'zlar:** psixologik xizmat, fenomen, zarurat, psixologik xizmat konsepsiyasi, psixologik xizmatning boshqaruv modeli, so'rovnoma, respondent, monitoring.*

KIRISH

Ta'lim tizimidagi psixologik xizmatning asosiy prinsipi gumanizm g'oyasiga asoslangan. Ta'lim tizimidagi psixologik xizmatning mavjud vaziyati tahlil qilinganida, psixologik xizmatning asosiy maqsadi maktab o'quvchilarining psixik va psixologik salomatligini saqlash degan xulosaga kelingan.

Bunga qo'shimcha sifatida aytishimiz mumkinki, bu xizmatning asosiy maqsadlari sirasiga o'sib kelayotgan shaxsning jismoniy va ruhiy salomatligini ta'minlash, shaxs sifatida rivojlanishiga xizmat qilish va ta'lim-tarbiyaning bola rivojlanishiga ijobiy ta'sirini kuchaytirish hisoblanadi.

O'zbekiston xalq ta'limi tizimida psixologik xizmat tizim sifatida shakllangan. Biroq, bugungi shakllangan tizim sifati qay darajada? Bu tizim o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni sifatli bajara olyaptimi? Tizimni ham shakl, ham mazmun jihatdan rivojlantirish uchun ehtiyoj mavjudmi? Agar shunday ehtiyoj mavjud bo'lsa, u nimalardan iborat? O'zbekiston xalq ta'limi tizimida psixologik xizmatni zamonaviy darajaga ko'tarish va yuqori sifatli xizmatni taklif eta olish uchun qanday o'zgarishlarga qo'l urishimiz mumkin? Ilmiy tadqiqotimiz davomida mazkur savollarga javob topish uchun harakat qilyapmiz.

Mazkur ish doirasida O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rta ta'lim maktablari amaliyotchi psixologlari o'rtasida so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnomada respondentlardan ularning faoliyatiga salbiy ta'sir qilayotgan muammolar nima

ekanligiga aniqlik kiritadigan savollar kiritilgan edi. Ushbu savollarga berilgan javoblar natijasida ma'lum muammolar turkumi shakllandi. Bular:

- oylik maoshning kamligi;
- psixologlar uchun moddiy sharoit va vositalarning yetarli emasligi (psixolog xonasi, kompyuter, printer, kanselyariya jihozlari);
- byurokratik ishlar, rasm va jadvallarning juda ko'pligi;
- psixologik xizmatda ustoz-shogird tizimi yo'lga qo'yilmaganligi;
- maktab psixologlarining xizmat vazifalaridan boshqa ishlarga jalb etish

holatlarining ko'pligi;

- garchi psixologik xizmatning psixologik kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom ishlab chiqilib tasdiqlanganligiga qaramay psixologlarga toifa berilishining kechikishi[4];
- psixologik tashxis metodikalarining ko'pligidan vaqt yetishmasligi;
- psixolog faoliyatini maktab o'qituvchilari tushunmasligi, mutaxassis sifatida tan olmasligi va ota-onalarga noto'g'ri ma'lumot berishlari;
- psixolog maslahatlarini ota-onalar noto'g'ri tushunishlari;
- maktab psixologning o'quvchilar bilan ishlashi uchun real vaqtning yo'qligi;
- maktab rahbarlarining (direktor va direktor o'rinbosarlari) psixologik xizmat faoliyatini yaxshi tushunmasligi;
- maktab o'quvchilarning oliy ta'limga kiritish muammosi;
- mutaxassis sifatida bilim va ko'nikmaning pastligi;
- psixolog faoliyatining tashkiliy ishlardan iborat bo'lib qolayotganligi; - maktabda shaxslararo munosabatlarning adekvat emasligi.

Albatta, yuqorida tilga olingan ayrim muammolar yuzasidan bahslashish mumkin, lekin tadqiqotning obyektivlik tamoyiliga putur yetkazmagan holda respondentlar qanday javob bergan bo'lsalar shundayligicha taqdim qilindi.

Yuqorida tilga olingan so'rovnomalar va uning natijalarini tahlil qilib ma'lum xulosalarni bayon qilamiz.

Nazarimizda, O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimidagi psixologik xizmatning konseptual, ilmiy, tashkiliy, moddiy va metodik jihatdan muammolari mavjud.

Mazkur muammolarni hal qilish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish kerak. Konseptual jihatdan:

- O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimidagi psixologik xizmat faoliyatini

rivojlantirishning 10 yillik rivojlanish konsepsiyasi ishlab chiqilishi

kerak; Ilmiy jihatdan:

- O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimidagi psixologik xizmat faoliyatini ilmiy jihatdan tadqiq qiluvchi, mahalliy muammolarni doimiy aniqlab, rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimidagi psixologik xizmat faoliyati yutuqlarini modifikatsiya qiluvchi va amaliy psixologiya instrumentlarini mahalliy sharoitdagi validliligini ta’minlab beruvchi ilmiy-tadqiqot markazi (think tank) tashkil etilishi kerak. Tashkiliy jihatdan:

- O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimidagi psixologik xizmat modeli ishlab chiqilishi zarur;

Moddiy jihatdan:

-maktab psixologlari moddiy sharoit va vositalar (psixolog xonasi, kompyuter, printer, kanselyariya jihozlari) bilan ta’minlash dasturi qabul qilinishi zarur; Metodik jihatdan:

- psixologik xizmat faoliyati uchun “Psixolog kitobi” ishlab chiqilishi kerak;

- psixodiagnostik metodikalarni ishlab chiqilishi yoki modifikatsiya qilish uchun ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi tashkil etilishi zarur.

- Psixologik xizmatning psixologik ma’rifat va tashviqot hamda psixologik maslahat maslahat yo‘nalishlarida aniq amaliy instrumentlarga asoslangan metodik qo‘llanmalar ishlab chiqilishi lozim;

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Дубровина И. В. Психологическая служба образования: научные основания, цели и средства //Психологическая наука и образование. – 1998. – Т. 3. – №. 2.
2. Jimerson S. R., Oakland T. D., Farrell P. T. (ed.). The handbook of international school psychology. – Sage, 2007.
3. Fagan T. K., Wise P. S. School psychology: Past, present, and future. – NASP Publications, 4340 East West Highway, Suite 402, Bethesda, MD 20814 2000.
4. <https://lex-uz.translate.google.ru/docs/4417140>.
5. Makhmutovna T. K., Ibragimovna T. I. Specific features of the pedagogical process focused on increasing the social activity of youth //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2020. – Т. 9. – №. 6. – С. 165-171.
6. Abdullaeva, B. S., Sobirova, M. A., Abduganiev, O. T., & Abdullaev, D. N. (2020). The specifics of modern legal education and upbringing of schoolchildren in the countries of the post-soviet world. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(2), 2706-2714.
7. Oglu, Abduganiev Ozod Tursunboy. "Pedagogical Conditions And Mechanisms Of Development Of Social Active Civil Competence In Students." *Turkish Journal of Computer and Mathematics Education* 12, no. 7 (2021): 433-442.

8. Abduganiyev, O. T. (2022, December). FACTORS AFFECTING THE DEVELOPMENT OF SOCIALLY ACTIVE CITIZENSHIP COMPETENCE IN STUDENTS. In *E Conference Zone* (pp. 10-13).
9. Abduganiyev O. Developing Student Civil Competency //Eastern European Scientific Journal. – 2019. – №. 1.

